Sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Respublikada olib borilayotgan jadal islohotlar natijasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha bir qator ijobiy natijalarga erishilgan. Buni quyidagi 1-rasm ma'lumotlari asosida tahlil qilamiz.



1-rasm: Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'ati²

Tahlil qilinayotgan 2012–2020-yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 109,6–115,5 foizni tashkil etdi. Mazkur holat to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o'zgaruvchan konjunkturasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, jadal rivojlanish mexanizmini ishlab chiqish hamda korxonalarda samarali korporativ boshqaruv tizimida zamonaviy uslublarni keng joriy etish hisobiga yuz bergan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi joriy narxlarda 408296,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davri bilan taqqoslanganda 0,4 %ga oshdi. YAIM deflyator indeksi 2019-yilning yanvar-sentyabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi.

2 Muallif ishlanmasi.



Respublikamizda so'ngi yillarda, sanoat korxonalari orasida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ham ortib bormoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan mamlakat YAIM o'sish sur'ati va uning tarkibida to'qimachilik mahsulotlarini o'sish sur'atini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston iqtisodiyotida YAIM va to'qimachilik tarmog'ining o'sish sur'ati (trln.so'mda)³

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
YAIM mlrd. so'm	120,1	144,5	177,2	210,2	242,5	302,5	406,6	511,8
Sanoat ishlab chiqarish hajmi	57,6	70,6	84,2	97,6	111,9	148,8	235,3	322,5
Qayta ishlash sanoati	43,6	55,3	67,1	77,1	89,8	117,7	189,6	254,8
To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	7,6	8,9	10,8	13,2	13,3	16,8	24,8	29,9

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, 2019-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 322535,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan taqqoslangan, bu ko'rsatkich 137,0 % ga oshgan. Shuningdek, sanoat sohasida qayta ishlash sanoati va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmog'i ham o'z o'rniga ega bo'lib, 2019-yilda mamlakatimizda qayta ishlash sanoatida 254860,9 mlrd. so'mlik (2012-yilga nisbatan 5,8 barobarga ko'p yoki 2018-yilga nisbatan 34,4% ga oshgan) mahsulot yaratildi hamda 29946,6 mlrd. so'mlik to'qimachilik mahsulotlari (2012-yilga nisbatan 3,9 barobarga ko'p yoki 2018-yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

Mazkur holat yuqori sifatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalar, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarning zamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, paxta xom ashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo'lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klasterlarini tashkil etish hisobiga yuz bergan.

Respublikamizda so'nggi yillarda sanoat korxonalari orasida to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarining ulushi ham ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratar ekanmiz, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat sohasida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni, fizik hajmi indeksi 14,4 % ga oshganining ishlab chiqarish hajmi esa 30342,0 mlrd.so'mni tashkil etganining guvohi bo'lamiz.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019-yilda sanoat sohasi tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining ulushi (9,3 %) o'tgan davrlarga nisbatan pasayganligi kuzatildi. Sanoat sohasi tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan davri 2012-yildan (17,6 %) 2015-yilgacha (17,2 %) bo'lgan davr oralig'iga to'g'ri kelmoqda (2-jadval).

2-jadval: To'qimachilik sanoati ulushi hamda fizik hajm indeksi to'g'risida ma'lumot⁴

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Ishlab chiqariladigan sanoatda to'qimachilik mahsulotlarining ulushi, % da	17,3	5,9	5,9	16,9	14,6	13,9	13,1	11,8
Sanoatda ishlab chiqarish tarkibida to'qimachilik mahsulotlarining ulushi, % da	17,6	6,1	6,2	17,2	14,9	14,2	13,1	9,3
To'qimachilik sanoatining fizik hajm indeksi, % da	107,6	13,2	107,2	10,5	109,0	100,5	107,4	105,3

Ma'lumotlarga e'tibor qaratar ekanmiz (3-jadval), mamlakatimizda 2019-yilda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari tomonidan jami 29946,6 mlrd. so'mlik (2018-yilga nisbatan 20,6 % ga oshgan) mahsulot yaratilgan bo'lsa, kiyim ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari tomonidan esa 9165,8 mlrd. so'mlik (2018-yilga nisbatan 18,5 % ga oshgan) mahsulot tayyorlangan. Bu ko'rsatkichlar 9 yil davomida, ya'ni 2011-yilga nisbatan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 4,4 barobarga hamda kiyim ishlab chiqarish 11,5 barobarga oshganligini ko'rish mumkin.

3 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

4 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



3-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi

Yillar	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati korxonalari		Kiyim ishlab chiqarish sanoati korxonalari	
	mlrd. so'm	foizda (%)	mlrd. so'm	foizda (%)
2011	6 736.9	101.3	795.2	119.6
2012	7 672.9	107.6	996.8	100.1
2013	8 898.3	113.2	1 165.8	106.1
2014	10 839.5	107.2	1 308.7	113.1
2015	13 241.7	110.5	1 585.3	111.5
2016	13 335.3	109.0	4 318.5	108.9
2017	16 763.3	100.5	6 108.2	110.5
2018	24 835.2	107.4	7 732.2	103.3
2019	29 946.6	105.3	9 165.8	108.7
2020 (10 oylik)	26 883.9	112.3	7 924.7	101.2

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda mamlakatimizda sanoat sohasida kiyim ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarining ulushi hamda yaratgan mahsulotlari hajmi boshqalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega.

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 1 082 ta loyiha 61 bo'yicha 9,5 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 107,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

4-jadval: Eksport qilingan to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari to'g'risida ma'lumot, ming AQSH dollar⁵

Ko'rsatkichlar	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.
Respublika bo'yicha	862 084,7	910 311,1	883 733,8	922 904,6	1 133 639,9	1 300 262,1	1 626 918,9
shundan:							
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 717,2	5 207,0	7 350,1	5 425,8	11 694,4	9 785,5	29 151,0
Andijon	125 651,4	120 577,5	106 467,8	130 950,6	150 214,3	209 814,3	183 091,3
Buxoro	53 613,6	80 323,9	67 672,4	38 150,6	25 839,8	32 377,2	60 204,9
Jizzax	18 148,4	34 977,0	22 761,4	31 288,4	30 771,7	28 371,9	53 509,2
Qashqadaryo	12 711,4	11 671,8	13 182,5	11 000,8	24 643,3	72 337,2	84 190,0
Navoiy	11 039,0	13 275,9	30 235,7	27 262,3	23 018,2	24 415,7	40 261,0
Namangan	59 526,1	61 796,2	51 213,5	62 122,7	103 146,8	128 000,8	183 483,6
Samarqand	34 798,6	28 424,4	25 568,8	33 584,7	55 954,4	61 601,5	74 063,1
Surxondaryo	9 447,2	9 396,6	14 075,1	10 346,5	14 294,6	24 521,1	76 130,8
Sirdaryo	16 465,1	19 073,2	15 576,5	18 191,9	33 870,9	32 359,7	30 593,9
Toshkent	133 376,4	119 389,2	109 934,4	113 240,0	161 329,4	154 094,0	198 983,7
Farg'ona	190 131,0	213 286,7	203 330,4	216 753,2	266 244,8	281 904,1	273 397,2
Xorazm	9 941,2	3 643,9	14 501,0	23 673,9	42 529,2	46 158,0	41 881,6
Toshkent sh.	179 518,1	189 267,7	201 864,1	200 913,2	190 087,9	194 521,0	297 975,3

Mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, eksport qiluvchi tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqobatbardosh eksport mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'paytirilishini rag'batlantirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 29-noyabrda "Mahalliy ishlab chiqarish"

5 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari <http://www.ziynet.uz/uploads/books/3602/53f33b88c19d3.pdf>



ruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son Farmoni⁶ qabul qilindi. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 2019-yilda jami 1626,9 mln. AQSH dollari miqdorida to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich o'tgan 2018-yilga nisbatan 25,1 % ga ko'pligini bildiradi. 2013-yilga nisbatan taqqoslanganda mamlakatimizda 1,9 barobar ko'p miqdorda to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri va Farg'ona viloyati ulushiga to'g'ri kelib, 2019-yilda jami eksport qilingan to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlarining 18,3 % ni Toshkent shahri va 16,8 % ni Farg'ona viloyati tashkil etgan (4-jadval).

Bundan tashqari, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes subyektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 1-mayda "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4302-son qarorining⁷ qabul qilinishi hududlarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini oshirdi.

Xususan, 2020-yilda respublikamiz hududlarida to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish darajasi ortdi. Eksport qilingan to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari dinamikasining tahliliga e'tibor qarata-digan bo'lsak, 2020-yilda respublikamizning Farg'ona viloyati (273,3 mln.dollar) va Toshkent shahri (297,9 mln. dollar) eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 2013-yilga nisbatan taqqoslanganida Farg'ona viloyati 1,4 va Toshkent shahri 1,7 barobar ko'p miqdorda to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan (5-jadval).

5-jadval: Eksport qilingan to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari dinamikasi tahlili (mln.AQSH dollar)⁸

№	Guruhlash oralig'i	Viloyatlar	Eksport qilgan to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari hajmi (mln. AQSH dollar)				2020-yilda 2013-yildagiga nisbatan o'zgarishi	
1.	I guruh (0-70) mln. AQSH dollar	Qoraqalpog'iston Respublikasi	7,7	11,6	9,7	29,1	21,4	3,7
		Buxoro	53,6	25,8	32,3	60,2	6,6	1,1
		Jizzax	18,1	30,7	28,3	53,5	35,4	2,9
		Navoiy	11,0	23,0	24,4	40,2	29,2	3,6
		Sirdaryo	16,4	33,8	32,3	30,5	14,4	1,9
		Xorazm	9,9	42,5	46,1	41,8	31,9	4,2
2.	II guruh (70-140) mln. AQSH dollar	Qashqadaryo	12,7	24,6	72,3	84,1	71,4	6,6
		Samarqand	34,7	55,9	61,6	74,0	39,3	2,1
		Surxondaryo	9,4	14,2	24,5	76,1	66,7	8,1
3.	III guruh (140-210) mln. AQSH dollar	Andijon	125,6	150,2	209,8	183,0	57,4	1,4
		Namangan	59,5	103,1	128,0	183,4	123,9	3,1
		Toshkent	133,3	161,3	154,0	198,9	65,6	1,5
4.	IV guruh (140-210) mln. AQSH dollar	Farg'ona	190,1	266,2	281,9	273,3	83,2	1,4
		Toshkent sh.	179,5	190,0	194,5	297,9	118,4	1,7

Shuningdek, to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha eng past ko'rsatkich I guruhga kiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi (29,1 mln.dollar), Buxoro (60,2 mln.dollar), Jizzax (53,5 mln.dollar), Navoiy (40,2 mln.dollar), Sirdaryo (30,5 mln.dollar) va Xorazm (41,8 mln.dollar) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2013-yilga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi 3,7, Buxoro 1,1, Jizzax 2,9, Navoiy 3,6, Sirdaryo 1,9 va Xorazm viloyatlarida 4,2 barobar ko'p miqdorda to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari eksporti bilan bir qatorda mahsulotlar importi ham amalga oshirilgan. Muallif ishlanmasi. 64 Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019-yilda respublika miqyosida jami 246 049,9 ming dollarlik (2013-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'p) to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari import qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 138% ni tashkil etdi.

6 www.LexUZ. Internet ma'lumotlari asosida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29-noyabrda "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son Farmoni.

7 www.LexUZ. Internet ma'lumotlari asosida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 1 maydagi "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4302-son qarori.

8 Muallif ishlanmasi.



Shuningdek, jami to'qimachilik faoliyat turi bo'yicha 2019-yilda respublikamizda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 9813,8 mlrd. so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan 2018-yilga nisbatan 2,6 barobarga ko'paygan. 2013-yildan 2019-yilga qadar mamlakatimizda to'qimachilik faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'rtacha hajmi 2677,3 mlrd. so'mni tashkil etgan (6- jadval). Ya'ni:

6-jadval: To'qimachilik faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, (mln.so'm)⁹

Ko'rsatkichlar	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.
Respublika bo'yicha	604969,1	715851,7	568904,3	1195406,1	2079484,9	3763220,1	9813866,3
shundan:							
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41712,9	6011,2	19510,0	20074,0	86036,7	85945,9	565538,0
Andijon	29399,2	21619,4	21584,3	55554,5	225086,5	489692,0	823892,0
Buxoro	46325,4	64955,9	37366,2	32407,3	97826,3	311377,2	1027995,9
Jizzax	66827,7	36187,2	61599,8	18221,1	53013,9	232027,6	895916,1
Qashqadaryo	5659,2	9944,6	17778,1	164835,4	376268,2	128967,7	1285662,6
Navoiy	15498,1	24329,8	15805,1	8816,1	73313,9	79819,3	362243,6
Namangan	46790,6	45163,8	40599,1	377118,4	174573,1	271868,8	1309069,2
Samarqand	34643,0	57807,1	33863,4	40815,1	256351,9	304800,0	445364,7
Surxondaryo	26707,7	33175,6	18460,9	43599,7	60526,8	363007,6	228446,2
Sirdaryo	8029,8	9908,5	7460,3	32410,6	40812,4	70502,2	700166,4
Toshkent	29650,6	20611,2	39063,7	18652,1	371279,4	417468,9	564659,0
Farg'ona	147896,5	137489,6	114519,8	134877,3	95877,5	729224,1	544208,4
Xorazm	33056,2	180075,3	71991,2	49959,1	19704,3	65311,7	337598,5
Toshkent sh.	72772,1	68572,4	69302,5	198065,3	148814,0	213207,1	723105,3

To'qimachilik faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining hududlar kesimidagi statistik tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich Namangan va Qashqadaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 13,3 % ni hamda 13,1 % ni tashkil etmoqda.

Shuningdek, Surxondaryo (2,3 %), Navoiy (3,7 %) va Xorazm (3,4 %) viloyatlari to'qimachilik faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga 55. 66 o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha jamiga nisbatan eng past ulushga ega.

To'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha tahlil etilgan statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining raqobatda zaif tomonlari sifatida to'quvchilik dastgohlarining ma'naviy eskirganligi, malakali muhandis-texnik xodimlarning yetishmasligi, gazlama, mato mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvning pastligi, tikuv va trikotajga yo'naltirilgan mahalliy matolar ishlab chiqarish rivojlanmaganligi, ayrim xududlarda tolani o'zlashtirish darajasining pastligi, xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etgan korxonalar sonining kamligi aniqlandi.

Ushbu masalalar o'zaro bir-biriga bog'liq, tolani o'zlashtirish darajasining pastligi to'qimachilikka, mato ishlab chiqarish rivojlanmaganligi kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga, zamonaviy texnika bilan jihozlanish darajasining pastligi xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmentini joriy etilmaganligiga kuchli ta'sir etmoqda. Ushbu muammolar yechimini topishda to'qimachilik korxonalari uchun zamonaviy dastgohlar keltirish, muhandis-texnik xodimlarni o'qitish tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda to'qimachilik mahsulotlari bozori boshqa bozorlardan o'z mahsulotlari turi va iste'molchilarning xilma-xilligi, ularning geografik, milliy, tarixiy, mintaqaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda marketing tadqiqotlarini o'ziga xos usul va uslubiyatlarda amalga oshirishni taqozo etadi. To'qimachilik mahsulotlari bozorida mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan raqobat strategiyalarini tanlash uslubiyoti to'qimachilik korxonalarini yanada rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

9 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. (<http://www.ziyounet.uz/uploads/books/3602/53f33b88c19d3.pdf>)



To'qimachilik mahsulotlari bozorida amalga oshirilayotgan marketing strategiyalaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Chunki uning bozor sifatida shakllanganligi va rivojlanishining sustligi, mahsulot narxlarining sifatiga muvofiq emasligi, iste'molchilar va tovar yetkazib beruvchilar bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanmaganligi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Monografiyada to'qimachilik mahsulotlari bozoridagi raqobat muhiti omillarini hisobga oluvchi ustuvor printsiplar asosida korxonalarda istiqbolli marketing strategiyasini tanlash va amalga oshirish jarayoni bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Tahlilga ko'ra to'qimachilik korxonalarida samarali raqobat strategiyasini tanlash potensial xaridorlarni ko'proq jalb qilish va raqobatchilarga nisbatan o'ziga xos siyosatni yuritish uning bozorda ma'lum ustunliklarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Marketing strategiyasini ishlab chiqishda vazifalarni aniqlash orqali to'qimachilik korxonasida rejalashtirilgan maqsadlar va kutiladigan yakuniy natijalar:

- sotuv, bozor ulushi va faoliyat unumdorligining boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha kutilayotgan natijalarni belgilash;
- tovar markasi va o'sish darajasi uchun investitsion maqsadlarni aniqlash belgilab olinadi.

Bunda investitsion maqsadlarni aniq ko'rsatish zarur, chunki ular asosida resurslar taqsimlanadi. Agar investitsion maqsad to'qimachilik korxonasini rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lsa, rivojlanish yo'lini belgilashda kelajakda korxona duch keladigan muammolarni ham e'tiborga olishi kerak.

To'qimachilik mahsulotlari korxonalari yagona jahon texnologik zanjirining bir qismi hisoblanadi: modaning oxirgi talabini hisobga olgan holda tovar bezagi – mato, juz'iy qismlarni ishlab chiqarish – tikish va qadoqlash – yakuniy iste'molchilarga sotish talab etiladi. Bu borada ishlab chiqilgan tavsiyalar mahalliy to'qimachilik korxonalarining jahon texnologik zanjirga kirishini ta'minlash, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, to'qimachilik mahsulotlarining mahalliy bozorini egalashning qulay strategiyasi hisoblanadi. Bu mahalliy iste'molchilar didiga mos kiyim-kechak ishlab chiqarishga xizmat qiladi, bu bilan import o'rnini bosishga erishiladi.

To'qimachilik korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda boshqarish samaradorligini baholash tizimi tarkibiy jihatdan: faoliyat turlarining bozorga yo'naltirilganlik samaradorligi; funksiyalar samaradorligi; talabni qondirish samaradorligi kabilardan tashkil topadi. Bunda iste'molchilar salohiyatini o'rganish; iste'molchilar salohiyatini baholash; rejalashtirish; tashkil qilish; motivatsiya; nazorat; tovarni boshqarish; sotuvni boshqarish; narxni boshqarish; kommunikasiyalarni boshqarishni hisobga olish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. <https://lex.uz/docs/4168749>.
2. Маршалл А. Принципы экономической науки. – Т. 1. и 2. – М.: Издание РОО, 1996.
3. Милль Дж. Основы политической экономии. Пер. с англ. – Т. 1-3. – М.: Прогресс, 1980-1981.
4. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – Том 1. Пер. с англ. – М.: Госполитиздат, 1955.
5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2007. – Серия: Антология экономической мысли – 960 с.
6. Amadae, S.M. (2017) Perpetual anarchy: From economic security to financial insecurity. *Finance and Society*, 3(2): 188-96.
7. Amicelle, A. (2017) When finance met security: Back to the War on Drugs and the problem of dirty money. *Finance and Society*, 3(2): 106-23.
8. Amore, L. (2011) Data derivatives: On the emergence of a security risk calculus for our times. *Theory, Culture & Society*, 28(6): 24-43.
9. Ahmad S., Ng Ch., McManusc L. Enterprise risk management (ERM) implementation: Some empirical evidence from large Australian companies. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 164 (2014) 541 – 547.
10. Der Derian, J. (1995) The value of security: Hobbes, Marx, Nietzsche and Baudrillard. In: Lipschutz, R. (ed.) *On Security*. New York, NY: Columbia University Press, 24- 45.
11. Delas V., Nosova E., Yafinovich O. Financial Security of Enterprises. *Procedia Economics and Finance* 27 (2015) 248 – 266.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrda "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4453-son qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz sayti ma'lumotlari.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrda "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-son Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4302-son qarori.
16. Boltaboyev M.R. To'qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 224 b.
17. Tillyaxodjayev A.A., Yusupov M., Akbarov N.G'. Marketing. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.